

PEKINDA O‘ZBEK MILLIY RAQSIGA QIZIQUVCHILAR KO‘PAYMOQDA



Pekin Raqs Akademiyasi taklifiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti katta o‘qituvchisi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Narziddin Shermatov hamda Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi ilmiy xodimlaridan iborat bir guruh san‘at va madaniyat ustalari Xitoy xalq respublikasiga yuborilgan edi.

Tashrif doirasida, 21 maydan 7 iyungacha davom etgan 18 kunlik safar davomida Narziddin Shermatov va Xitoylik talabalar o‘rtasida o‘zbek milliy raqs san‘ati, uning tarixi va kelajagi mavzusida mahorat darslari tashkil etildi. Amaliy mashg‘ulotlar davomida esa talaba-yoshlar o‘z iqtidorlarini o‘zbek milliy raqsida ham sinab ko‘rishdi. Xitoy safari natijasi o‘laroq, yaqin kelajakda O‘zbekiston san‘at oliygohlari hamda Pekin Raqs Akademiyasi o‘rtasida o‘quv, ilmiy va ijodiy ishlar masalasida Mahorat darslarini tashkil etish, aloqalarni yanada mustahkamlash va tajriba almashish maqsadida Onlayn mashg‘ulotlar o‘tkazishga kelishib olindi.

Kelgusida o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash rejalashtirilgan.

O'zDSMI Axborot xizmati